



KASABA UYUSHMALARI FAOLLARI BILAN O‘TKAZILGAN TARIXIY UCHRASHUV MEHNAT MUNOSABATLARI SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQAADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Davlatimiz rahbari o‘z nutqida kasaba uyushmalari harakati a‘zolariga o‘zining yuksak hurmati va ezgu tilaklarini bildirdi, har bir korxona va tashkilotga ishchanlik muhitini, mehnat jamoalariga rag‘bat va adolat ruhini olib kirayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

— Biz bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ulkan marralarga intilib, dadil qadam tashlayapmiz. Dunyoda geosiyosiy va iqtisodiy keskinlik avj olib borayotgan hozirgi murakkab davrda yurtimizda tinchlik va xotirjamlikni mustahkamlab, ko‘p millatli xalqimiz hayotini yanada yaxshilashga

mahkam bel bog‘laganmiz. Bu borada mehnatkash va bag‘rikeng xalqimiz, har bir yurtdoshimizning o‘rni, qo‘shayotgan hissasi beqiyos, — dedi Prezident.

Sakkiz yilda iqtisodiyotimizga 130 milliard dollar investitsiya kirib kelgani, minglab yangi quvvatlar ishga tushirilib, millionlab



doimiy ish o‘rni yaratilgani ta’kidlandi. Xususiy sektorga keng yo‘l ochilib, odamlarga munosib mehnat sharoiti yaratib berilgani uchun jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetdi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, mehnatni muhofaza

qilish, kafolatlangan ijtimoiy himoyani ta’minlash bo‘yicha mustahkam qonuniy asoslar yaratilgani ta’kidlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to‘g‘risida” va “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinishi bu sohada muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy oldi. Sakkiz yil oldin ushbu tashkilotning O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlari soni 12 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda 25 taga yetdi.

Davomi 2-betda

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FAOLLARI VA FAXRIYLARI BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı do‘stlar, muhtaram mehmonlar!

Hurmatli kasaba uyushmalari faxriylari va faollari!

Sizlar bilan mana shunday samimiy, ko‘tarinki kayfiyatda ko‘rishib turganimdan xursandman.

Barchangizga, kasaba uyushmalarining ko‘p millionli a‘zolariga o‘zinning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Biz bugungi kunda o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yib, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidan oldinga qarab dadil qadam tashlayapmiz.

Dunyoda geosiyosiy va iqtisodiy keskinlik avj olib borayotgan hozirgi murakkab davrda yurtimizda tinchlik va xotirjamlikni mustahkamlab, ko‘p millatli xalqimiz hayotini yanada yaxshilashga mahkam bel bog‘laganmiz.

Bular, albatta, o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, birgalikda qattiq mehnat qilib, turli sinov va mashaqqatlardan munosib tarzda o‘tib

bormoqdamiz. Bu borada mehnatkash va bag‘rikeng xalqimiz, har bir yurtdoshimizning o‘rni, qo‘shayotgan hissasi beqiyos, albatta.

Bugungi davramizda o‘z hayotini inson mehnatini, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdek ezgu ishga bag‘ishlagan, sohada uzoq yillar samarali xizmat qilib, hurmat va e‘tibor topgan ko‘plab odamlarni ko‘rib turibman.

Inson mehnati, uning qadr-qimmatı qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko‘ra yaxshi bilasiz.

Yurtimizda xalqparvar, ijtimoiy davlat qurish, inson qadrlini ulug‘lash barcha islohotlarimizning bosh maqsadiga aylangan hozirgi kunda siz, azizlarning boy bilim va tajribangiz biz uchun juda muhim.

Fursatdan foydalanib, har bir korxona va tashkilotga — ishchanlik muhitini, mehnat jamoalariga — rag‘bat va adolat ruhini olib kirayotgan kasaba uyushmalari faollariga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do‘stlar!

Ulug‘ ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy: **“Biz o‘z hayotimizni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak,**

avvalo, odamlarning haq-huquqini tan olishni o‘rganishimiz kerak”, degan edi.

Bu — haq gap. Chindan ham, huquq va erkinliklar ta’minlangan, odamlari emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat ham, jamiyat ham albatta rivojlanadi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan ilk kunlardan **“Inson qadri uchun”** degan ezgu g‘oyani amalga oshirish uchun, avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik.

Bu yo‘ldagi sa‘y-harakatlarimiz tufayli sakkiz yilda iqtisodiyotimizga 130 milliard dollar investitsiya kirib keldi, minglab yangi quvvatlar ishga tushirildi, millionlab doimiy ish o‘rinlari yaratildi.

Xususiy sektorga keng yo‘l ochib, chin yurakdan ishlayman degan odamlarga munosib mehnat sharoitini yaratib berganimiz uchun jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetdi.

Har bir insonning huquq va erkinligini ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish, kafolatlangan ijtimoiy himoyadan

foydalanishi uchun mustahkam qonuniy asoslar yaratdik. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamiz, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinishi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlar bo‘ldi.

Parlamentimiz huzuridagi Jamoatchilik ekspert kengashlari tarkibiga kasaba uyushmalari vakillari ham kiritildi. Bu esa qonunlarni qabul qilishda xodimlar manfaatı yanada ishonchli himoya qilinishiga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish ham biz uchun yetakchi yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy institutlarni qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 100 karra oshib, bu yil 1 trillion 200 milliard so‘mga yetdi.

Ayni vaqtda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga aralashgani, jamoatchilik nazorati natijalarini ko‘rib chiqmagani uchun javobgarlik belgilandi.

Bir eslab bilan aytganda, milliy huquq tizimimiz xalqaro standartlarga moslashib,

inson huquqlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining barqaror kafolatiga aylandi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy olayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilmoqda. E’tibor bering, sakkiz yil oldin ushbu tashkilotning O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlari soni 12 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda 25 taga yetdi.

Har bir ratifikatsiya orqali O‘zbekiston o‘z zimmasiga katta majburiyat olmoqda.

Nima uchun hech ikkilanmasdan o‘zimizga bunday ulkan mas’uliyatni olaymiz?

Chunki barcha islohotlarimiz zamirida inson qadrlini ulug‘lash mujassamdır. Va bu — mamlakatimiz qo‘shilayotgan xalqaro hujjatlar mazmunı bilan to‘la hamohangdir.

Aynan inson qadriga e’tibor — barcha yutuqlarimiz asosi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz!

Qadrlı do‘stlar!

Bir eslab ko‘ring, bolalar mehnati va majburiy mehnatga to‘liq barham berish

uzoq yillar biz uchun eng og‘riqli masala bo‘lib kelgan edi. Faqat kuchli iroda, qat’iy pozitsiyamiz orqali biz bu murakkab muammoni ijobiy hal qildik.

Yangi O‘zbekistonning insonparvarlik tamoyillariga sodiq ekanini ko‘rsatadigan bu o‘zgarish ijtimoiy hayotimizda mutlaqo yangi sahifa ochmoqda. Mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ilg‘or tajribasi Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan namuna sifatida boshqa davlatlarga tavsiya etilgani ham shundan dalolat beradi.

O‘zbek paxtasi dunyodagi ko‘plab nufuzli brend kompaniyalarning “qora ro‘yxati”dan chiqarildi. Cotton campaign tashkiloti O‘zbekistonga qo‘yilgan taqiqni butunlay bekor qildi. Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonga ushbu siyosiy tuzilma davlatlari bozoriga imtiyozli kirib boshlash imkonini beradigan GSP+ tizimini taqdim etdi. Milliy mahsulotlarimiz uchun 26 ta yangi bozor ochildi, Yevropaga eksportimiz 5 karra oshib, 1,5 milliard dollarga yetdi.

Davomi 2-betda

DAVLAT XIZMATCHISINING BOSHQARUVDAGI SALOHİYATI STRATEGIK FIKRLASHI, MULOQOT MAHORATI BILAN BELGILANADI

Bugun jahon integratsiyasi, raqamli transformatsiya va jamiyat ehtiyojlarining tez sur’atda o‘zgarishi davlat boshqaruvi tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu ma’noda, davlat fuqarolik xizmati samaradorligini ta’minlash, kadrlar salohiyatini oshirish va xizmatchilarning kasbiy ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirib borish strategik ahamiyatga ega.

Davlat xizmatchilari nafaqat kasbiy bilimga, balki zamonaviy boshqaruv usullari, raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish borasida ham zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Mamlakatimizda davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning institutsional tizimi bosqichma-bosqich yangilanib, korporativ ta’lim mexanizmlariga asoslangan ilg‘or amaliyotlar joriy etilmoqda.

Bu yo‘nalishda, xususan, malaka oshirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda xizmatchilar bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga zamonaviy talablarga moslashtiriladi. Bugungi zamonaviy nazariyalarga ko‘ra, davlat xizmatchisi

strategik fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari, muloqot va jamoatchilik bilan ishlash mahorati, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda davlat xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sohada vakolatlari organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng ushbu yo‘nalish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining bilim va ko‘nikmasini, sohaga doir tajribasini oshirish

amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda har bir tashkilot yil davomida bosqichma-bosqich, belgilangan reja asosida xodimlarining malakasini oshirib kelmoqda.

Agentlik axborot xizmatining qayd etishicha, davlat fuqarolik xizmatchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida Fransiya, Finlandiya, BAA, Turkiya, Xitoy, Singapur, Irlandiya, AQSH, Polsha, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi davlatlarning uzoqsiz ta’lim, stajirovka, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va samaradorlikni baholash kabi tajribasi o‘rganilgan hamda milliy strategiyamizga moslashtirilgan.

Davomi 3-betda



21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni

6



Yuksalish pallası

GEOLOGIYA MAKTABI TARAQQIYOTI: AN'ANA, ISLOHOT VA ISTIQBOL

Yurtimiz geologik jihatdan boy mamlakat sifatida dunyo xaritasida o'z o'rniga ega. Oltin, uran, mis kabi strategik metallar bo'yicha yetakchi o'rinlarda qayd etilgan. Bugun esa bu salohiyatni yangi ilmiy yondashuvlar orqali yanada kengaytirish, chuqur qatlamlardagi konlarni aniqlash va ishlab chiqarishga yo'naltirish vazifasi turibdi.

Habib Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti shu maqsad yo'lida faoliyat yuritayotgan yirik ilmiy maskanlardan biridir. Institut o'z faoliyatida tabiat jarayonlarini faqat kuzatish emas, balki ularni tahlil etish, modellashtirish va prognozlash darajasiga olib chiqdi. Yer litosferasi tuzilishi, mineral resurslar shakllanishi qonuniyatlari, chuqur strukturalarning o'zaro bog'liqligi kabi murakkab masalalar bu dargohda ilmiy aniqlikka ega bo'lmoqda. Yer qobig'i tuzilishi, foydali qazilmalar paydo bo'lish qonuniyatlari, mineral-xomashyo resurslarini o'zlashtirish masalalari ilmiy tahlil asosida o'rganilmoqda. Aynan shu yo'nalishdagi izlanishlar iqtisodiy strategiyalarni shakllantirish, yangi konlarni aniqlash va resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

Natijadorlikka qaratilgan rivojlanish konsepsiyasi

Institutning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasida bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish ko'zda tutilgan. Unda fundamental tadqiqotlar bilan bir qatorda amaliy loyihalar, xalqaro hamkorlik dasturlari va zamonaviy laboratoriyalar faol ishlamoqda. Har bir loyiha mamlakat iqtisodiyotiga bevosita foyda keltirish, resurslardan samarali foydalanish va energiya xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan.

Eng muhim yo'nalishlar Prezidentimizning 2016-yil 13-sentabrdagi "Yer q'a'rini geologik o'rganish sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 1-martdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida belgilangan.

Kelgusi besh yillik uchun belgilangan konsepsiya geologik tadqiqotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida chuqurlashtirish, mineral-xomashyo bazasini kengaytirish va chuqur konlarni aniqlashga yo'naltirilgan. Maqsad aniq: yer haqidagi fundamental tadqiqotlarni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, izlash-baholash jarayonlarini ilmiy mezonlar orqali tekzor va ishonchli qilish. Konsepsiya geologik qidiruvni hududiy darajada yangi bosqichga ko'tarish, 3D geologik-geofizik



modellar yaratish bilan birga, geokimyoviy va geofizik yondashuvlarni yangilashni nazarda tutadi.

Ilmiy natijalarni iqtisodiyot bilan bog'lash mexanizmlari aniq belgilangan. Konsepsiya energetika, sanoat, suv resurslari va ekologik barqarorlik yo'nalishlarida geologik ma'lumotlar bilan ta'minlashni ko'zlaydi. Shu doirada ilmiy izlanishlar, mintaqaviy geofizik tadqiqotlar va geotermal resurslarni baholash ishlari bajarilmoqda. Bu loyihalar resurs xavfsizligi, eksport salohiyati va hududiy rivojlanish uchun amaliy natija beradi.

So'nggi yillardagi natijalar rejaning amalga tatbiq etilayotganini tasdiqlaydi: davlat dasturlari, xo'jalik shartnomalari va grantlar doirasida 40 dan ortiq loyiha bajarildi, shuningdek, magmatik va postmagmatik jarayonlar bo'yicha modellar, 3D blok modellar, tematik xaritalar yaratildi, yangi istiqbolli maydonlar ajratildi. Bu ishlarni geologik qidiruvning anigligini oshiradi, izlash-baholash bosqichlarida vaqt va xarajati kamaytiradi.

Ilmiy yo'nalish va amaliy natijalar

Institut faoliyatining bugungi manzarasida fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlik kuchaygan. Tadqiqotlarning asosiy qismi amaliy natijaga qaratilgan. Yer qobig'ining tuzilishini chuqur o'rganish, foydali qazilma konlarini izlash, resurslarni baholash va qayta ishlash tizimlarini ishlab chiqish institut ilmiy dasturlarining markazida turadi.

Keyingi yillardagi izlanishlar tufayli qator yangi istiqbolli maydonlar aniqlangan. Qizilqum, Bukantov va Chotqol hududlarida o'tkazilgan dala tadqiqotlari oltin, nikel, litiy, qo'rg'oshin va boshqa metallarga boy qatlamlarni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu tadqiqotlar energiya barqarorligi va suv xavfsizligi uchun muhim poydevordir.

Geologik tadqiqotlarda geofizika laboratoriyalari alohida o'rin tutadi. Institutda gravimetrik, magnit-tellurik va magnit qidiruv usullari asosida paleozoy yotqizqlari mezozoy va kaynozoy yotqizqlari bilan qoplangan hududlarda yashirin ma'danlarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan. Shu asosda mintaqaviy geofizika laboratoriyasi

Zirabuloq tog'lari oralig'idagi botqlik hududlarida dala ishlarni o'tkazmoqda. Glytsial geologiya markazi esa muzliklar monitoringini yuritadi, ularning massasi va harakatini kuzatish bo'yicha atlas hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirgan. Bu tizim suv muvozanatini ilmiy asosda boshqarishga yordam bermoqda.

Muassasaning ilmiy yondashuvi milliy iqtisodiyot uchun bevosita foyda keltiruvchi yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Foydali qazilma konlarini aniqlash, geologik risklarni kamaytirish, eksport salohiyatini oshirish, suv va energiya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar davlat

Fan va amaliyot tutashgan nuqta

Joriy yil 10-oktabr kuni muassasada akademiklar I.Hamroboevning 105 va F.Usmonovning 90 yilligiga bag'ishlangan "Geologiya, petrologiya va metallogeniyaning fundamental va amaliy muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Konferensiya institut konsepsiyasida ko'zlangan maqsadlarni amaliy bosqichga olib chiqdi. Jumladan, geologik tadqiqotlarni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'lash, mineral-xomashyo bazasini kengaytirish, chuqur qatlamlarni izlash va baholash mexanizmlarini



siyosatining ilmiy tayanchiga aylangan. Har bir loyiha yakunida ishlab chiqilgan natijalar investitsiya qarorlarini qabul qilish, yangi konlarni o'zlashtirish va ekologik muvozanatni saqlashda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

takomillashtirish masalalari muhokama markazida bo'ldi. Kun tartibidan o'rin olgan litosferani kompleks o'rganish, 3D geologik-geofizik modellashtirish, geokimyoviy va geofizik tahlillarni raqamlashtirish, prognozlash mezonlarini yangilash hamda natijalarni tekzor



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



strukturaliy qatlamlarni o'rganish, geofizik va geokimyoviy tahlillarni raqamlashtirish kabi masalalarga ustuvor e'tibor qaratildi. Anjumaning amaliy ahamiyati yangi konlarni ochishda ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdir. Respublikamizda Muruntov, Guzaksoy, Chormitan, Qalmoqqir, Uchquloq kabi yirik obyektlar ham aynan ilmiy asoslangan izlanishlar natijasida ochilgan va bugun yangi istiqbolli maydonlar bo'yicha yana shunday izlanishlarga ehtiyoj katta.

Ishirokchilar tarkibi tajriba almashuviga qulay sharoit yaratdi: MDH, Osiyo va Yevropaning ilmiy markazlari, universitetlar va tahlil laboratoriyalari bilan doimiy aloqalar yo'lga qo'yildi. Natijada etalon namunalarning raqamli muqobilarni yaratish, O'zbekiston tog' jinslari milliy atlasida ushlab, mutlaq yoshni aniqlash metodikalarini almashish, qo'shma laboratoriya tahlillari va ekspeditiviyalar bo'yicha kelishuvlar shakllandi. Bu yo'nalishlar institutning xalqaro nufuzini mustahkamlab, metodik birlikni ta'minlaydi va tahlil natijalari solishtiriluvchanligini oshiradi.

Xalqaro hamkorlik va integratsiya siyosati

Geologiya va geofizika instituti xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan faol integratsiya jarayonini yo'lga qo'ygan. Bu siyosat institut faoliyatining ilmiy salohiyatini oshirish, natijalarni jahon standartlariga yaqinlashtirish va zamonaviy metodlarni tatbiq etish imkonini bermoqda. So'nggi yillarda tuzilgan hamkorlik shartnomalari, qo'shma ekspeditiviyalar va ilmiy markazlar bilan aloqalar bo'yicha ushbu muhim burilish yasadir.

Institutning xalqaro tarmog'i kengayib bormoqda. Xitoy Geologiya fanlari universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi, Qozog'iston, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon va Turkiya ilmiy markazlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu aloqalar doirasida dala tadqiqotlari, laboratoriya tahlillari va ilmiy seminarlar o'tkazilmoqda.

MDH davlatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga chiqqan. Institut tashabbusi bilan Ostona shahrida o'tgan hukumatlararo kengash sessiyasida muhim masalalar muhokama qilindi. Shulardan eng asosiy tarmog' jinslarining etalon namunalari bo'yicha raqamli muqobilarni yaratish, O'zbekiston tog' jinslari milliy atlasini tayyorlash, qo'shma laboratoriyalarni rivojlantirish va mutlaq yoshni aniqlash bo'yicha uslublarni birlashtirishdir. Bunday yondashuv xalqaro metodik birlikni mustahkamlab, ilmiy tahlillar aniqligini oshiradi.

Muassasaning xalqaro grant dasturlaridagi ishtiroki ham faollashgan. Rivojlangan davlatlar va xalqaro ilmiy fondlar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari doirasida geofizika, geokimyoviy, petrologiya, kosmogeoologiya va geoinformatika yo'nalishlarida loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar orqali institut moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda, yangi laboratoriya uskunalari keltirilmoqda, ilmiy natijalar ochiq ma'lumotlar tizimiga kiritilmoqda.

Kadrlar almashinuvi tizimi xalqaro integratsiyaning eng samarali qismi bo'lib qolmoqda. Institut olimlari va yosh mutaxassislari xorijiy ilmiy markazlarda stajirovka o'tamoqda, yangi tahlil metodlarini o'rganmoqda. Shu bilan birga, xorijiy ekspertlar institut laboratoriyalarida qo'shma tadqiqotlar o'tkazmoqda. Yosh geologlar uchun xalqaro doktorantura va magistratura dasturlari ochilgan, malaka oshirish kurslari muntazam yo'lga qo'yilgan. Shu yo'l bilan Geologiya va geofizika instituti ilm-fan natijalarini amaliy natijaga aylantirish, resurs siyosatini dalillarga tayanib yuritish va O'zbekistonda ilmiy jihatdan barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqish yo'lida ishonchli platforma yaratmoqda.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

PREZIDENTIMIZNING O'ZI BIZNI QO'LLAB-QUVVATLAYAPTI

Iftixor

Biz, o'zbekistonlik yoshlar dunyoning eng baxtiyor farzandlarimiz, desak xato bo'lmaydi. Negaki tinch va farovon yurtda ilm olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Ayniqsa, til o'rganish borasida bizga hech qaysi davr yoshlarida bo'lmagan imtiyozlar berilyapti. Buning samarasi o'laroq, juda ko'plab tengdoshlarimiz bir necha til bilish sertifikatlari, xalqaro miqyosdagi yutuqlarga ega bo'lmoqda. Fan olimpiadalari, sport musobaqalari bo'yicha bilim, iqtidori, salohiyatini global maydonda munosib namoyish etayotgan yigit-qizlarimiz safi ortib borayotgani quvonarli.

Jumladan, menga ham ingliz, rus va koreys tillarini mukammal bilishim, raqamli sohaga astoydil qiziqishim xalqaro hamkorlik va madaniy almashuv jarayonlarida faol ishtirok etishda muhim omil bo'lyapti. 5 mingdan ortiq ariza kelib tushgan bu yilgi "Raqamli avlod qizlari" tanlovida 120 ta



Sevinch MAVLONOVA,
"Yangi O'zbekiston"
universiteti talabasi

startap bo'ya saralab olindi. Bu startaplar mualliflari "Renessans" oromgohida bir haftalik maxsus seminar-treninglarda o'qidi. Eng yaxshi 6 ta startap loyiha egasi esa AQSHga ta'lim sayohatiga yo'llanma oldi. Bizga berilgan imkoniyatlardan foydalanib, AQSHdek rivojlangan davlatga 10 kunlik sayohatga borib kelganlar orasida ekanimdan juda xursand bo'ldim. Bu bizga juda katta ko'tarinkilik berdi. Ushbu davlatning yoshlar orzu qilgan nufuzli oliygohlariga borib seminarlar tashkil etdik. Kuchli hayajon bo'ldi.

Maktab o'quvchilari uchun yaratgan innovatsion raqamli platformamiz bizga

shunday muvaffaqiyatlar keltirdi. Platformani o'quvchilar sun'iy intellekt bilan maktabdagi fanlarni chuqurroq, samaraliroq o'zlashtirishi uchun yaratdik. Ya'ni o'quvchi shunchaki darslikdan bilim o'rganib qolmaydi. Har bir fanning ich-hissiga kirib boradi. Videokontenda hammaga ochiq-oydin ko'rsatiladi. Qolaversa, har bir mavzu yuzasidan test savollari bor. O'quvchi har

bitta darsni qanday o'zlashtirganini shu test javoblaridan bilib olish mumkin. Sun'iy intellekt uning qayerda xato qilganini aniqlab, boshqa test tuzib beradi. Eng muhimi, hamma bir xil o'qitilmaydi. O'quvchiga nimani bilishi yoki bilmasligidan kelib chiqib bilim beriladi. Qisqacha aytganda, bunday platformalar qulay, zamonaviy va milliy ruhda raqamli vosita bo'lib qoladi. Shuningdek, ular nafaqat



“

Eng yaxshi 6 ta startap loyiha egasi esa AQSHga ta'lim sayohatiga yo'llanma oldi. Bizga berilgan imkoniyatlardan foydalanib, AQSHdek rivojlangan davlatga 10 kunlik sayohatga borib kelganlar orasida ekanimdan juda xursand bo'ldim. Bu bizga juda katta ko'tarinkilik berdi. Ushbu davlatning yoshlar orzu qilgan nufuzli oliygohlariga borib seminarlar tashkil etdik. Kuchli hayajon bo'ldi.

texnologik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ular yordamida yosh avlod erkin, o'z tilida muloqot qiladigan raqamli muhitga ega bo'ladi.

Startaplarimizning xalqaro tanlovlarda ham e'tirof etilayotgani bizni yanada balandroq maralarga undayapti. Nufuzli universitetlarning obro'li professorlari loyihalarimizga katta qiziqish bildirdi. Joriy yil Yoshlar kunida davlatimiz rahbariga ham loyihamizni namoyish etganimizda "Texnologiyalarning ortidan yangiliklar qidirayotgan qizlarim borligidan faxrlanaman", dedi. Prezidentimizning o'zi bizni qo'llab-quvvatlayapti. Bundan bunihiyora ruhlanamiz.

Bugun sun'iy intellekt hayotimizda muhim o'rin egallayapti. Raqamlashtirish orqali aksariyat ishlarni yengillashtirish.

Raqamli sohada qizlarimiz faolligi ortayotgani ayni muddao. Chunki shu paytgacha raqamli yo'nalishda qizlar ulushi juda kam bo'lgan. Endilikda biz, raqamli avlod qizlari mamlakatimiz yoshlarining aqil salohiyatini dunyo miqyosda keng yoyib, Prezidentimiz ishonchini munosib oqlashga harakat qilamiz. Shuning uchun ham AQSHning 10 ta nufuzli universitetiga (dunyoning TOP-100 taligiga kiruvchi oliygohlar) qabul qilindi, jami 260 ming AQSH dollarlik grantlarni qo'lga kiritgan bo'lsam-da, "Yangi O'zbekiston" universitetida o'qishga qaror qilganman va bundan hech qachon afsuslanmayman. Bu yerda biz uchun hozirlangan eng zamonaviy sharoitlarga javoban yana ko'plab yangi va qulay platformalar yaratib, minglab yoshlarimizga taqdim etish maqsadidaniz.

Til millat taqdiri, o'tmishi va yorqin kelajagidir. Davlat tilining amalda mustaqilligi, mustahkamligi, mavqei millat qadri va qadriyatlarining bardavomligi, sobitligini ta'minlovchi kuch.

Bu so'zlarning qanchalar haqiqat ekaniga yaqinda Janubiy Koreyaga xizmat safarim davomida yana bir bor ishonch hosil qildim. Xalqaro anjuman sabab bir haftaga yaqin muddat Seul shahrida turib, bu davlatning bugungi yuksak taraqqiyoti ildizlarini anglagandek bo'ldim. Avvalo, bu baho mehnatkash koreys xalqining o'z yurtiga cheksiz muhabbati, milliy qadriyatlariga hurmati va ona tiliga sadoqati tufayli berilgan bo'lsa, ajab emas. Har yurtning obodligi shu mamlakat, millat farzandlarining vatanga, qadriyatlariga va tiliga munosabatida namoyon bo'ladi.

Biz ishtirok etgan xalqaro anjumanda 23 mamlakattan vakillar qatnashdi. Garchi ular orasida faqat yagona guruh koreyalik mutaxassislar bo'lsa-da, har kunlik tadbirlar, avvalo, Koreya Respublikasining madhiyasi bilan boshlanib, tabrik, tanishtiruv va e'lonlar avval koreys, keyin vositachi to'bo'lgan ingliz tilida e'lon qilib borildi. Joylashgan o'rinalarimizda qo'yilgan qayd varaqlari, yo'riqnomalar ham faqat shu davlat tilida va kichik harflar bilan ingliz tilida yozilgan edi.

Biz joylashgan binoning ozodaligiga mas'ul oddiy xodimdan tadbirdan so'ng aylanish uchun atrofda qanday diqqatga sazovor joylar borligi



haqida so'radik. Ayol tarixiy joylar va shaxslar, binolar haqida juda zavq bilan batafsil gapirib berdi. Uning so'zlarida, ko'zida tug'ilib o'sgan zaminiga cheksiz mehr-muhabbatni ko'rdik. Bundan ta'sirlanmaslikning esa iloji yo'q edi. Menimcha, har bir inson vatanni chin ma'noda sevishi mana shunday hech bir iddaosiz, ta'nasiz, sodda va samimiy bo'ladi. Uni boricha, borligicha sevgan inson tiliga, millatiga, qadriyatlariga zarracha xiyonat qilmaydi.

“Davlat tili haqida”gi yangi tahrirdagi qonunimizning 1-moddasida “O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir”, deb yozilgan.

Bugun yangi O'zbekistonda ona tilimizning ijtimoiy hayot va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatandashlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishga qaratilgan yangidan yangi tashabbuslar ilgari surilayotgani guvohi bo'lyapmiz.

Muhimi, bu boradagi sa'y-harakatlar sohada to'planib qolgan muammo hamda kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Yangicha tashabbuslar mamlakatimizda o'zbek tilini zamon talablari asosida rivojlantirish, davlat tili sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlash borasidagi mas'uliyatli vazifalarning samarali ijrosi uchun nihoyatda zarur.

Milliy til faqat munosabatlar vositasi emas, balki milliy madaniyat kaliti, qadriyatlar uzviyligi uchun mustahkam ildizdir. Xo'sh, bu qoidalar bugun hayotimizga nechog'liq tatbiq etilyapti?

**Zilola XO'JANIYOZOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi**

Yurtimiz ko'chalarini aylansangiz, ko'zingiz quvnaydi, dilingiz g'urunga to'ladi. Yildan yilga chiroy ochib bormoqda, yangidan yangi osmono'par binolar shahar husniga ko'rk qo'shayti. Ammo shahar va tumanlarimizda qad rostlab turgan ba'zi binolar, savdo markazlari, ovqatlanish shoxobchalaridagi taomnoma, narxnoma, peshlavhalar va reklamalardagi nom hamda yozuvlarni ko'rgan kishi taassuf chekadi. Go'yo boshqa mamlakatga tushib qolgandek tasavvur uyg'onadi.

Vaholanki, mazkur qonunda lavhalar, e'lonlar, narxnoma va boshqa ko'rgazmali hamda o'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtirilishi va e'lon qilinishi hamda boshqa tillarda tarjimasi

xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yoshlarimizni vatandashlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalari hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash edi.

Buni bajarish mamlakatning istiqbolini, taraqqiyotini ko'rmoqni istagan, farzandlari, kelajak avlodlarga sof tilimiz va boy qadriyatlarimizni bus-butun yetkazishni o'zining sharaflari burchi deb biladigan har bir vatandoshimizning vazifasidir.

Milliy manfaatlar va qadriyatlar himoya etiladigan eng mustahkam asos bu — milliy til. Tarixdan saboq olgan holda madaniy-ma'naviy boyligimiz bo'lmish ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, softligini asrash, himoya qilish biz uchun hamisha hayot-mamot ishi bo'lmog'i lozim. Millatimiz kelajagi, tilimiz ertasi oldida har birimiz hamisha mas'ulmiz. Shayx Sa'diyning “Sen chiroqni ko'rolmasang, chiroq birlan neni ko'rasan?” degan satrlari bor. Bu satrlar bugun ona tilimizga munosabatimizga ham daxldordek.

Ko'pchiligimiz ishdan uyga kelgach, beixtiyor televizor pulitni qidiramiz. Ko'nglimizga xush keladigan, ruhimizga ma'naviy ozuqa beradigan ko'rsatuvlarni ko'rishni istaymiz. Ayniqsa, ko'rsatuvlarda millatimizga xos qadriyatlar targ'ib etilayotganidan, o'zbek adabiy tilida ravon gapirayotgan boshlovchilarning milliy kiyimlardagi chiqishlarini ko'rib, dilimiz ravshan tortadi.

Biroq so'nggi paytlarda ba'zi milliy telekanallarimizda berilayotgan, ma'naviyatning zavoli bo'lgan, saviyasi haminqadar reklamalar, mantiqsiz kliplar, o'zbek adabiy tiliga hurmatsizlarcha munosabatda bo'layotgan boshlovchilarni ko'rib, tomoshabinlarning ta'bi xira bo'layotgani ham bor gap.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmaktur”.

Muhtasham turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, orzu-intilishlari, dardu armonlari, g'alabalari bilan chambarchas bog'liq. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelgan. Shu tilda buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan. Birgina

**Buyuk ma'rifatparvar bobomiz
Abdulla Avloniy yozganidek:
“Har bir millatning dunyoda borlig'ini
ko'rsatadigan oyinai hayoti til va
adabiyotidir.
Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini
yo'qotmaktur”.**

berilishi mumkinligi, shuningdek, respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlar nomi davlat tilida aks ettirilishi zarurligi qayd etilgan.

Shu o'rinda jaded bobomiz Abdurauf Fitratning “Tilimiz” nomli maqolasi yodimga tushadi. Unda olim o'zbek ziyolilarining fors va arab so'zlarini ishlatishga ishtiyoqmandligi haqida kuyinchaklik bilan bunday yozgan edi: “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yonahol' (yana shu) turkchadir”. Oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, bu mavzu, ushbu muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Prezidentimizning “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilingan edi. Undan ko'zlangan maqsad 2020-2030-yillarda o'zbek tilining

ulug' shoir Hazrat Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida yigirma olti mingdan ortiq so'z ko'llangan adabiy o'zbek tilining naqadar boy va mukammal ekaniga yaqqol misol bo'la oladi.

Ona tilimiz dunyodagi eng qadim va boy tillardan biri sifatida nihoyatda boy leksik xazina ega ekan, so'z qo'llash, nom tanlash masalasida o'zbek tilining izohli lug'atlar majmualariga tayyanib, konseptual yondashish maqsadga muvofiq. Til va yozuvning zamirida millat ruhi, tarixi, Vatan tuyg'usi mujassamdur. Uning kelajagi va ravnaqida har bir vatandoshimiz fidoyiligi, jonbozligi joiz.

Shunday ekan, ma'naviyatning ko'zgusi — ona tiliga munosabat shaxsning ma'naviyatga munosabatini ham belgilaydi. O'z tilimizga e'tiborsiz bo'lishga haqqimiz yo'q. Zero, tilimiz taqdiri millat taqdiridir. Uni asrab-avaylash, davlat tili sifatidagi nufuzini o'rnatish yo'lida keng miqyosli ishlarni bajarish, shu tilda ish yuritish esa bizning qonuniy vazifamiz va burchimiz.

Tilga “ona” maqomi berilgani shundan. Zero, ona tili faqat muloqot vositasi emas, balki xalqning ruhiy qiyofasi, tarixiy

asarning yozilish tarixini bir eslaylik. Bu ulug' ne'matga tazyiq o'tkazayotganlar, balki xalqning ruhiy qiyofasi, tarixiy



xotirasi va ma'naviy merosidir. Boshqa tillar ifodasidagi so'zlar hech qachon ona tilimiz kabi tuyg'ularimiz tarjimoni bo'la olmaydi. Shu jihatdan ona tilimizning qadriini anglash va nufuzini oshirish har birimizning fuqarolik burchimizga aylanmog'i lozim.

Afsuski, bugungi kunda bu masala hanuz yechimini topmagan eng o'riqli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bugun aholiga xizmat ko'rsatiladigan joylar — shoshilinch murojaat markazlari, aeroport, vokzal, mehmonxonalar, xususiy klinika va ko'plab korxonalarda o'zbek tilida to'liq va ravon muloqot qilish imkoniyati yetarli darajada emas. Bu esa ko'pchilik aholiga jiddiy noqulayliklar tug'dirmoqda. Albatta, mamlakatimizda til va so'zlashuv erkinligi mavjud. Har kim uyida, ko'chada, shaxsiy muloqotda istalgan tilda so'zlashish huquqiga ega. Biroq mas'ul lavozimda ishlayotgan shaxs ish joyida, xususan, xalq bilan muloqotda davlat tili — o'zbek tilida gapirishni o'zining qonuniy va fuqarolik burchi deb bilishi kerak.

Ona tilimiz jonkuyarlaridan adabiyotshunos Zuhridin Isomiddinov yozadi: “Har qanday davlatning negizida til turadi, har bir til, kattami-kichikmi, qadimiy-yoshmi, boym-kambag'almi — bundan qat'i nazar, har davlat tuzish salohiyatiga ega, ammo dunyoning eng katta, qudratli davlatlari ham birorta tilni paydo qilishdan o'jiz. Til — shunday mo'jiza narsa”.

Darhaqiqat, til — millatni millat qilib turuvchi asosiy ustunlardan biri. Afsuski, bugun davlat tilida so'zlashni istamaydigan “erkatovlar” kamaymayapti, aksincha, jim tursak, boshqa tillarni ham o'zbek tiliga tenglashtirish payida bo'ladi. Dam-badam tilimizga “til tekkiuzuvchilar”, bu sohada har xil tashabbuslarga “bel bog'lovchilar” ham ko'payaveradi. Ular uchun esa haddini bildirib qo'yadigan qat'iy mexanizm, tish-timoqli qonunlar yaratilishi shart.

— Ona tilimiz hamma zamonlarda ham bosim va tazyiq ostida taraqqiy etib kelgani ko'z oldimdan o'tadi. Xayriyatki, uning o'z himoyachilari, o'z fidoyilari bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi, — deydi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, professor Suyun Karimov. — Ulug' Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn”

mohiyatini tushunish oson kechadi. Ammo dushmanlik ichkaridan bo'lsa-chi? Shunday paytda ko'z oldimga adabiy tilimizni buzayotganlar, unga nisbatan mensimasdan munosabatda bo'layotganlar keladi. Agar ular boshqa millat vakillari bo'lsa, bu tushunarli. Ammo shu millatga mansub bo'lsa-chi? O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga!

Matbuot va ommaviy axborot vositalari bo'lgan radio, televideniye, gazeta va jumallar, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar mamlakatimizda o'zbek



tilining faol iste'molchilari hisoblanadi. Uning adabiyiligi va madaniyiligi targ'ib qiluvchilar va namoyish etuvchilar ham aynan shular. Gazeta va jumallarda, davlat radda va telekanallarda o'zbek tilini me'yorlarga amal qilinayapti. Ammo ayrim nodavlat telekanallar, ulardagi ayrim ko'rsatuv va radioeshittirish boshlovchilari tilining butunlay shevachilik asosiga qurilganini qanday tushunsa bo'ladi? Bu ularning o'zbek adabiy tilini bilmasligi debmi yoki ona tiliga bo'lgan bepisandlik va hurmatsizlik debmi? Yoki o'zlarini boshqa o'zbek shevalari vakillaridan ustun qo'yishmi? Yoki adabiy tilda gapirish layoqati yetishmaydimi?

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilining nufuzini oshirish, adabiy me'yorlarini mustahkamlash borasida ham amaliy ishlar qilinmoqdaki, ularni e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Davlat tilini xalqaro miqyosdagi o'rni va boshqa

tillar bilan aloqalari istiqbolini belgilash, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari, elektron dasturlarni ishlab chiqish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Mazkur yo'nalishda jami 33 ta oliygohda mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida 7 mingdan ziyod fan nomzodi va doktori, professor-o'qituvchi o'zbek tili va adabiyotidan dars bermoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida tashkil etilgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'rgatish va malaka oshirish markazida esa vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari uchun o'zbek adabiy tili me'yorlari hamda imlo qoidalari bo'yicha muntazam o'quv kurslari tashkil etilmoqda.

Shunga qaramay, oramizda muz kabi qotib qolgan davlat tiliga e'tiborsizlik illatini bartaraf etishimiz, ona tilimizni “qutqarish”imiz, jon berib himoya qilishimiz lozim. Ancha yillar ruhiy qaramlik iskanjasida qon-qonimizga singib ketgan befarqligimiz o'zimiz, o'z tilimizni shu qadar o'jiz qilib qo'ydimkan degan o'ylar charx uradi ba'zan. Qaysidir rasmiy majlislarda, fikr almashuvlarda yoki ommaviy tadbirlarda o'zga tilda so'zlashish, u orqali o'z fikrini bayon etish ba'zan “intelektuallik”, “zamonaviylik” alomatiga aylangandek. Yot zabonli hamsuhbat bilan o'zbekcha muloqot qilish

o'rimga unga moslashishga harakat qilamiz. Agar uning tilida so'zlamasak, o'zimizni mulzam his etamiz.

Achchiq bo'lsa-da, yana bir haqiqat shuki, ayrim taniqli o'z shiqchi yulduzlari himoyat ham “o'z tilini bilmaslikda” kimo'zarda. Ushbu san'atkorlar aynan shu tilda qo'shiq aytgan holda tirikchilik qilishadi, lekin “o'z tilida gapira olmaslik” alamlari bir haqiqatdir. Qo'shiq tinglovchi qalbiga yetib borishi uchun, avvalo, ijrochining o'zi o'sha tilni his etishi, unda erkin muloqot qila olishi lozim emasmi? Aks holda, bu san'at shunchaki tijoriy vositaga aylanib qolmasmikan?.. Ona tilini bilmaslik emas, bilib turib hurmat qilmaslik eng katta fojiodir.

**Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist**